

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi” kafedrasida dotsenti
Eshonqulova Shafoat Ergashevna taqdiri ostida

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “MINGLIK” KONSENTRIDA ARIFMETIK AMALLARNI O‘RGANISH

Samandarova Shaxnoza Ergashevna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fa‘kulteti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida assistenti

Shaxnozasanandarova913@gmail.com

Tel raqam: +99894241-09-86

Annotasiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda “Minglik” konsentrida arifmetik amallarni o‘rganish yuzasidan so‘z yuritiladi. “Minglik” konsentrida og‘zaki qo‘shish va ayirish usullari, yozma qo‘shish va ayirish tartibi yuzasidan fikr yuritiladi. “Minglik” konsentrida ko‘paytirish va bo‘lish amallarini bajarish hollari yoritiladi. Maqolada “Minglik” konsentrida amallarni bajarish nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda amaliy misollar yordamida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: nomerlash, qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish.

Аннотация: В данной статье речь идет об изучении арифметических действий в концентрации «Минглик» в начальных классах.

В концентрации «Минглик» рассматриваются способы устного сложения и вычитания, порядок письменного сложения и вычитания. В концентрации «Минглик» освещаются случаи выполнения операций умножения и деления. проведение операций в концентрации «Минглик» с практическими примерами.

Ключевые слова: нумерация, сложение, вычитание, умножение, деление.

Annotation: This article discusses the study of arithmetic operations in the “Minglik” concentration in primary grades.

The “Minglik” concentration discusses the methods of oral addition and subtraction, the procedure for written addition and subtraction. The “Minglik” concentration covers the cases of performing multiplication and division operations. The article demonstrates the performance of operations in the “Minglik” concentration using theoretical approaches and practical examples.

Keywords: numbering, addition, subtraction, multiplication, division.

KIRISH. “Minglik” mavzusini o‘rganishga katta ahamiyat beriladi, chunki bu mavzu yuzdan katta bo‘lmagan sonlar ustida arifmetik amallar bajarishdan ko‘p xonali sonlar ustida amallar bajarishga o‘tishda bolalarga yordam beradi. Ming ichidagi sonlar ustida hisoblash malakalarini puxta hosil qilish uchun sinfdagi o‘quvchilarning ko‘p xonali sonlar ustida arifmetik amallar bajarishni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Og‘zaki qo‘shish va ayirish: 1000 ichida og‘zaki qo‘shish va ayirish usullari 1. Yig‘indiga sonni qo‘shish va yig‘indidan sonni ayirish qoidalariga asosan bajariladigan hollar

(480+10, 480+200, 270-40, 850-500, 300-50, 300-200, 500-200);

Bunda qo‘shiluvchilardan biri yig‘indi holatiga keltirilib, keyin amal bajariladi.

$480 + 10 = (400 + 80) + 10 = 400 + (80 + 10) = 490$

$270 - 40 = (200 + 70) - 40 = 200 + (70 - 40) = 200 + 30 = 230$

2. Qo'shish songa yig'indini qo'shish, ayirish sondan yig'indini ayirish qoidasiga asosan bajariladigan hollar

$$(500+140, 900-120, 260+310, 750 - 430, 500-230, 280+40);$$

Bu hollarda ikkinchi qo'shiluvchi yoki ayiriluvchi yig'indi holatiga keltiriladi.

$$500+140 = 500 + (100+40) = (500 + 100) + 40 = 640$$

$$900 - 120 = 900 - (100 + 20) = (900 - 100) - 20 = 800 - 20 = 780$$

3. Xonalab qo'shish va ayirish usullariga doir misollar quyidagicha bajariladi;

$$260 + 310 = (200 + 60) + (300 + 10) = (200 + 300) + (60 + 10) = 500 + 70 = 570$$

$$750 - 430 = (700 + 50) - (400 + 30) = (700 - 400) + (50 - 30) = 300 + 20 = 320.$$

Bu misollar yechilishining boshqacha usullarini ham keltirishimiz mumkin:

$$500 + 140 = 50 \text{ o'n} + 14 \text{ o'n} = 50 \text{ o'n} + (10 \text{ o'n} + 4 \text{ o'n}) = 60 \text{ o'n} + 4 \text{ o'n} = 64 \text{ o'n} = 640, \text{ ayirish amali ham huddi shu tartibda amalga oshiriladi.}$$

Yozma qo'shish va ayirish alohida -alohida, oldin qo'shish, keyin ayirish qaraladi. Yozma hisoblash malakalarini takomillashtirish kerak, ammo biz o'quvchilarning istalgan vaqtda birinchi talabdayoq qanday nazariy fikrlar yotishini mustaqil holda tushunishi va tushuntirib berishga erishishga harakat qilamiz.

Bunday holda o'quvchilarga ilgari 100 likda o'rganilgan hisoblashlar esga solinadi va yozma qo'shish amali tartibi o'rgatiladi:

1. Birlar yig'indisi va o'nlar yig'indisi 10 dan kichik bo'lgan hol

$$231 + 342 = (200 + 300) + (30 + 40) + (1 + 2) = 500 + 70 + 3 = 573$$

2. Birlar yig'indisi yoki o'nlar yig'indisi (yoki ikkalasi ham) 10 ga teng bo'lgan hol

3. Birlar yig'indisi yoki o'nlar yig'indisi (yoki ikkalasi bir vaqtda) 10 dan katta bo'lgan hol [1].

Materiallar va uslublar: Yozma hisoblashni o'rganishning har bir bosqichida hisoblash malakalarini orttirish uchun mashq qildirish xarakteridagi misollardan yetarli miqdorda berish zarur. Quyidagi mashqlar namunasini keltiramiz:

1. Qo'shishga doir misollar yeching, uni ayirish bilan tekshiring;

2. Ayirishga doir misollar va ularni qo'shish bilan tekshirish

3. Berilgan misollardan og'zaki yechish qiyin bo'lganlarini ustun qilib yozing

4. Berilgan misollarni yozma yechgandagi xatolarni tushuntiring;

5. Tushirib qoldirilgan raqamlarni qo'ying; [3]

$$\begin{array}{r} 851 \qquad \qquad 312 \qquad \qquad 62 \\ 69 \qquad \qquad + 22 \qquad \qquad - 25 \\ 382 \qquad \qquad 57 \qquad \qquad 6 \end{array}$$

6. Berilgan misollarni yeching, ular yechilishidagi umumiylikni aniqlang, har bir ustunga misollar tuzing

$$452 - 307 \qquad 234 - 67 \qquad 751 - 248 \qquad 231 - 104$$

$$324 - 86 \qquad 487 - 175 \qquad 742 - 509 \qquad 723 - 99$$

7. Qo'shishni son bilan yozing:

$$\begin{array}{r} AB \\ + A \\ \hline BDD \end{array}$$

8. Agar $A * B = A$ va $A + B = 10$ bo'lsa, A va B raqamlarni toping

9. $1 * 2 * 3 * 4 * 5$ ko'paytmani toping

10. Bir xonali son takror yozildi. Son necha marta oshdi?

11. $(x+3) - 23 = 56$ va $(x - 41) + 12 = 25$ ko‘rinishdagi tenglamalarda noma‘lum topish malakasini tekshirish

12. $(a-b)*c$ (bunda $a = 20, b = 12, c=10$) ko‘rinishdagi harfli ifodalarning sonli qiymatini topish malakasini tekshirish.

Natijalar va muhokamalar; “Minglik” mavzusini o‘rganishdan asosiy maqsad nomerlash hamda yozma qo‘shish va ayirish amallari algoritmlarini ongli, puxta o‘zlashtirishlariga erishishdan iborat. 1000 ichida qo‘shish va ayirishning og‘zaki usullari ko‘rib chiqiladi. 4-sinfda esa asosan sonni yig‘indiga, yig‘indini songa qo‘shish va sonni yig‘indidan, yig‘indini sondan ayirish qoidalari asosida amallar bajariladi. Hisoblash malakalarini hosil qilish uchun zarur bo‘lgan mashq qildirish harakteridagi mashqlardan tashqari, qo‘shimcha qator mashqlar bajarish ko‘zda tutiladi. [1]

O‘quvchilarga ko‘paytirish bo‘lish ikkinchi sinfda o‘rgatiladi. Bu dastlab bir xil qo‘shiluvchilarni qo‘shish va uni ko‘paytirishga almashtirish orqali tushuntiriladi.

$$3 + 3 + 3 + 3 + 3 + 3 = 6 * 3 = 18$$

$$5 + 5 + 5 + 5 = 5 * 4 = 20$$

Bundan keyin o‘quvchilarga jadvalli ko‘paytirish xoli tushuntiriladi. Masalan 2ga ko‘paytirish jadvalini tuzaylik.

$$2 * 2 = 2 + 2 = 4$$

$$2 * 3 = 2 + 2 + 2 = 6$$

$$2 * 4 = 2 + 2 + 2 + 2 = 8$$

$$2 * 5 = 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 10$$

$$2 * 6 = 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 12$$

$$2 * 7 = 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 14$$

$$2 * 8 = 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 16$$

$$2 * 9 = 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 + 2 = 18$$

Shunga mos xolatda bo‘lish jadvali ham bir vaqtda o‘rgatiladi.

$$4 : 2 = 2$$

$$6 : 2 = 3$$

$$8 : 2 = 4$$

$$10 : 2 = 5$$

$$12 : 2 = 6$$

$$14 : 2 = 7$$

$$16 : 2 = 8$$

$$18 : 2 = 9$$

Jadvaldan tashqari ko‘paytirish va bo‘lish hollarini o‘rganish quyidagi tartibda qaraladi. Sonni yig‘indiga va yig‘indini songa ko‘paytirish hollari, so‘ngra yig‘indini songa bo‘lish xossasi o‘rgatiladi.

$$26 * 3 = (20 + 6) * 3 = 20 * 3 + 6 * 3 = 60 + 18 = 78$$

$$(12 + 15) : 3 = 12 : 3 + 15 : 3 = 4 + 5 = 9$$

Bo‘lish amalini bir xonali songa so‘ngra ikki xonali songa bo‘lish tartibi burchak usulida o‘rgatiladi. Undan keyin misollar to‘g‘riligini tekshirish maqsadida bo‘lishni ko‘paytirish amali bilan tekshirish tushuntiriladi.

1) ko‘paytmani ko‘paytuvchiga bo‘lamiz, topilgan natija ikkinchi ko‘paytuvchi bilan taqqoslanadi.

2) Bo‘linma bo‘luvchiga ko‘paytiriladi, topilgan natija bo‘linuvchi bilan taqqoslanadi. [2]

O‘quvchilarga qoldiqli bo‘lish tushuntiriladi. Bunda o‘quvchilarga bo‘lishda chiqadigan qoldiq bo‘luvchidan kichik bo‘lishi kerakligi o‘rgatiladi.

10:2=5(0 qoldiq)

10:3=3(1 qoldiq)

XULOSA:

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatilayotgan har qanday matematik tushuncha soddadan murakkabga tomon tushuntiriladi. Ya'ni 10 lik 100 lik va 1000 lik tipida bosqichma bosqich olib boriladi. O'quvchilarning o'nlik va yuzlikda o'rgatilgan arifmetik amallari minglikni o'rganishda asos bo'ladi. Arifmetik amallarda dastlab o'quvchilarga qo'shish va ayirish amali keyin ko'paytirish bo'lish amallari o'rgatiladi. 10 lik va 100 likda arifmetik amallarni mustaqil bajara olgan o'quvchi 1000 likda arifmetik amallarni tezlikda o'zlashtirib oladi. 1000 likda qo'shish va ayirish amalini o'rgatishdan oldin xona birliklarini o'rgatish lozim. "Minglik" konsentrida berilgan sonni xona birliklariga ajrata olgan o'quvchi ustuncha usulida qo'shish va ayirishni bajara oladi. Ya'ni birliklar xonasidan xotirada qolgan son o'nlik bo'lib o'tishini, o'nliklar xonasidan xotirada qolgan son yuzlik bo'lib o'tishini o'quvchilarga amallarni bajarish orqali tushuntiriladi. Ko'paytirish amali o'quvchilarga dastlab bir xinali songa ko'paytirishdan boshlab tushuntiriladi. Keyin ikki xonali va uch xonali songa ko'paytirish o'rgatiladi. Amalni tekshirish bo'lish orqali bajarilishini misollar orqali tushuntiriladi. Bo'lishda burchak usulining qulayliklari va afzalliklarini o'quvchilarga amalni bajarish davomida asoslab o'tiladi. "Minglik" konsentrida arifmetik amallarni bajara olgan o'quvchi ko'p xonali sonlar ustida arifmetik amallarni baja olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumayev M.E "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi fa'kultetlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan) Toshkent "O'QITUVCHI" 2004
 2. Tojiboyeva G.Z. Shonosirova A., Xo'jayev A., Davletov E., Abdullayeva M., "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent "Malik print col MCHJ" 2021
 3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G' "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" Toshkent "Fan va texnologiya" 2005
 4. Jumayev M.E "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006
Qo'shimcha adabiyotlar:
 5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent. «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
 6. Jumaev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Ilm Ziy" 2005 yil.
 7. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. "Arnoprint" 2005 yil.
 8. Tadjiyeva Z.G' va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematikadan dars samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish. Toshkent 2020
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
 2. www. pedagog. Uz
 3. www. Ziyonet. uz
 4. www. edu. uz
 5. tdpu-INTRANET. Ped